Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI TABIAT VA ARTEFAKTLAR SOHASI METAFORALARINING TARMOQ VA FREYM XUSUSIYATLARI

Mattiyev Abdulaziz Oktyabrjon o’g’li
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Andijon davlat chet tillari instituti,
Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasi dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.21531552

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillari materialida tabiat (suv, olov, tog‘, daraxt, shamol) hamda artefaktlar sohasi metaforalari freym semantikasi va kognitiv modellashtirish nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi mavhum tushunchalarning tabiiy elementlar yordamida qanday konseptuallashishini slot, terminal va filler birliklari orqali ochib berishdir. Maqolada suvning xotira va nutq, olovning ehtiros, tog‘ning mas’uliyat hamda daraxtning an’ana va o‘sish freymlarini shakllantirishdagi o‘rni qiyosiy tahlil qilinadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda umumiy kognitiv poydevor mavjud bo‘lsa-da, o‘zbek tilida tabiat metaforalari ko‘proq ma’naviy-axloqiy qadriyatlar (sabr, baraka, avlod), ingliz tilida esa ijtimoiy-institutsional jarayonlar (islohot, munozara, kollektiv energiya) bilan bog‘lanadi. Tadqiqot natijalari kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va qiyosiy semantika sohalari uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.
Kalit so‘zlar. Tabiat metaforalari, freym semantikasi, slot, kognitiv model, o‘zbek tili, ingliz tili, konseptual proyeksiya.

СЕТЕВЫЕ И ФРЕЙМОВЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ МЕТАФОР СФЕРЫ ПРИРОДЫ И АРТЕФАКТОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В данной статье исследуются фреймовые и сетевые характеристики метафор сферы природы (вода, огонь, гора, дерево, ветер) и артефактов в английском и узбекском языках. Цель исследования — раскрыть механизмы концептуализации абстрактных понятий через природные элементы, используя понятия слотов, терминалов и филлеров. В статье проводится сопоставительный анализ фреймов «вода» (память, речь), «огонь» (эмоции), «гора» (ответственность) и «дерево» (традиции, рост). Анализ показывает, что при наличии общей когнитивной базы, в узбекском языке природные метафоры чаще связаны с духовно-нравственными ценностями (терпение, благодать, преемственность), в то время как в английском языке они ориентированы на социально-институциональные процессы (реформы, дискуссии, коллективная энергия). Результаты исследования имеют важное значение для когнитивной лингвистики, лингвокультурологии и сопоставительной семантики, позволяя глубже понять национальную специфику языковой картины мира.
Ключевые слова. Природные метафоры, фреймовая семантика, слот, когнитивная модель, узбекский язык, английский язык, концептуальная проекция.

NETWORK AND FRAME CHARACTERISTICS OF NATURE AND ARTIFACT DOMAIN METAPHORS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation. This article examines the frame and network characteristics of metaphors in the domains of nature (water, fire, mountain, tree, wind) and artifacts within English and Uzbek linguistic contexts. The study aims to reveal how abstract concepts are conceptualized through natural elements using slot, terminal, and filler units of frame semantics. The paper provides a comparative analysis of

frames such as water (memory, speech), fire (passion), mountain (responsibility), and tree (tradition, growth). The findings indicate that while both languages share a common cognitive foundation, natural metaphors in Uzbek are more closely aligned with moral and spiritual values (patience, blessing, lineage). In contrast, English metaphors tend to focus on socio-institutional processes (reform, debate, collective energy). The research provides significant insights for cognitive linguistics, linguacultural studies, and comparative semantics by highlighting how cultural terminals and fillers shape the national linguistic worldview.

Keywords. Nature metaphors, frame semantics, slot, cognitive model, Uzbek language, English language, conceptual projection.

Kirish. Ingliz va o‘zbek tillarida tabiat sohasiga oid metaforalarni o‘rganish abstrakt ma’nolarning qanday shakllanishini aniqlash uchun muhim nazariy maydon yaratadi. Suv, olov, tog‘, daraxt, shamol, tuproq, quyosh, tun, bo‘ron kabi tabiiy elementlar insonning bevosita idrok tajribasida doimiy ravishda takrorlanadi, shu bois ular vaqt, hayot, xotira, his tuyg‘u, axloqiy baho, ijtimoiy holat va bilim kabi abstrakt sohalarni tushuntirishda faol manba sohasi vazifasini bajaradi. Konseptual metafora nazariyasi nuqtai nazaridan metafora badiiy nutqning bezak vositasi darajasida turmaydi, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Lakoff va Johnsonning klassik tadqiqotida metafora insonning jismoniy hamda ijtimoiy tajribasi yordamida boshqa sohalarni anglash imkonini beruvchi fundamental aqliy mexanizm sifatida izohlanadi, shuningdek ularning asarida orientatsion, ontologik va struktur metaforalar alohida nazariy bo‘limlar sifatida ko‘rsatiladi. Mazkur nazariy asosdan kelib chiqib, tabiat metaforalarini faqat alohida ko‘chma iboralar yig‘indisi sifatida tahlil qilish yetarli ko‘rinmaydi; ularni freym, slot, terminal va filler birliklari orqali tavsiflash maqsad sohaning ichki semantik qurilishini chuqurroq ochishga yordam beradi. Freym semantikasi Fillmore tomonidan so‘z ma’nosini izolyatsiyalangan lug‘aviy birlik sifatida tushuntirishdan ko‘ra, uni ma’lum bilim sahnasi, ishtirokchilar tizimi va fon tajribasi bilan bog‘liq holda ko‘rishni taklif qilgan yondashuv sifatida shakllantirilgan.

Freym (frame) muayyan konseptni tushunish uchun zarur bo‘lgan bilimlar majmui, uning ichki rollari, vaziyat ishtirokchilari va kutiladigan semantik munosabatlari bilan bog‘liq kognitiv tuzilmadir. Slot freym tarkibidagi bo‘sh semantik o‘rin bo‘lib, terminal ushbu o‘ringa beriladigan yakuniy qiymatni, filler esa konkret matnda slotni to‘ldiruvchi lisoniy birlikni bildiradi. Masalan, suv freymida oqim, manba, chuqurlik, to‘lqin, qirg‘oq, tiniqlik, toshqin, chanqoqni qondirish kabi slotlar mavjud bo‘lishi mumkin. Ingliz tilidagi A wave of suspicion crossed the audience (Shubha to‘lqini auditoriya bo‘ylab o‘tdi, suv freymi) birligida “wave” suv harakati slotini, “suspicion” maqsad sohani, “audience” esa ijtimoiy makonni to‘ldiradi. O‘zbek tilidagi Ko‘nglida armon daryosi jim oqardi (A river of regret was silently flowing in his heart, suv freymi) ifodasida daryo ichki ruhiy holatni tartiblaydi. Har ikki misolda suv oqimi ruhiy yoki ijtimoiy jarayonni ifodalashga xizmat qiladi, ammo inglizcha birlikda shubhaning jamoaga tarqalishi, o‘zbekcha birlikda esa ichki armonning sokin davomiyligi semantik markazga chiqadi. Bu farq shuni ko‘rsatadiki, freymning umumiy sxemasi yaqin bo‘lishi mumkin, lekin terminal va filler darajasida har bir til o‘z madaniy sezgisini, poetik odatini va baholash markazini ishga soladi. Shu bois tabiat freymlarini qiyosiy tahlil qilishda faqat “suv”, “olov” yoki “tog‘” leksemalarining mavjudligini qayd etish bilan kifoyalanish ilmiy to‘liqlik bermaydi; ularning qaysi slotlarni faollashtirishi va qaysi maqsad sohalarga proyeksiya qilinishi alohida ko‘rsatilishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tabiat manba sohalari ichida suv freymi ikki tilda ham yuqori darajada mahsuldor ko‘rinadi. Ingliz tilida suv ko‘pincha vaqt, xotira, ommaviy kayfiyat, nutq harakati va bilish jarayonlarini ifodalashda ishtirok etadi: A current of nostalgia carried him back to childhood (Sog‘inch oqimi uni bolalikka qaytardi, suv freymi), The conversation flowed into a painful topic (Suhbat og‘riqli mavzuga oqib o‘tdi, suv freymi), Public anger rose like floodwater after the decision (Qarordan keyin jamoatchilik g‘azabi toshqin suvidek ko‘tarildi, suv freymi). O‘zbek tilida suv obrazi hayotiy davomiylik, ko‘ngil holati, ravon nutq, fursat, xotira va poklanish bilan zichroq bog‘lanadi:

Umid buloqdek ko‘nglidan otilib chiqdi (Hope sprang from his heart like a spring, suv freymi), So‘zlari soy suvidek mayin oqdi (His words flowed gently like a stream, suv freymi), Xotira irmoqlari uni eski hovliga yetakladi (The streams of memory led him to the old courtyard, suv freymi). Ushbu misollarda umumiy kognitiv poydevor bir xil: suv harakati abstrakt jarayon harakatiga ko‘chiriladi. Biroq inglizcha birliklarda ijtimoiy energiya, munozara yo‘nalishi va kollektiv emotsiya kuchliroq sezilsa, o‘zbekcha birliklarda ichki dunyo, xotira, mayinlik, voha tajribasi va ravonlik semantikasi yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Bu hol o‘zbek tilida suvning madaniy qiymati faqat fizik modda bilan bog‘liq bo‘lmay, tiriklik, baraka, poklik va ruhiy yengillik ramzi sifatida ham ishlashini ko‘rsatadi.

Olov freymi ingliz va o‘zbek tillarida emotsiya, irodaviy kuch, xavf, kuchayish, ichki energiya va ziddiyatni ifodalashda faol manba sohasidir. Ingliz tilidagi Jealousy smouldered behind his polite smile (Uning muloyim tabassumi ortida rashk cho‘g‘lanib turardi, olov freymi), The protest ignited a national debate (Norozilik milliy bahsni alangalantirdi, olov freymi), Her ambition burned through years of failure (Uning maqsadi yillar davom etgan muvaffaqiyatsizliklar ichra yonib turdi, olov freymi) kabi birliklarda olovning cho‘g‘lanish, alangalash va yonish slotlari ruhiy holat hamda ijtimoiy harakatga ko‘chiriladi. O‘zbek tilida ham olov ko‘pincha ichki ehtiros, muhabbat, orzu, g‘urur va iztirobni ifodalaydi: Orzu ko‘ksida cho‘g‘ bo‘lib saqlandi (The dream remained as ember in his chest, OLov freymi), G‘urur yuragida alanga oldi (Pride caught fire in his heart, olov freymi), Hijronning issig‘i ko‘nglini kuydirdi (The heat of separation burned his heart, olov freymi). Ingliz tilidagi “ignite” va “burn” kabi birliklarda tezkor reaksiyaga, ijtimoiy kuchayishga va harakat boshlanishiga urg‘u kuchli bo‘lsa, o‘zbek tilidagi “cho‘g‘”, “alanga”, “kuydirmoq” obrazlari ko‘proq ichki kechinma, sabr bilan saqlangan ruhiy kuch va ishqiy iztirobga yaqinlashadi. Bu farq olov freymining universal tana tajribasiga tayanishi bilan birga, har bir tilda badiiy an’ana va lingvomadaniy xotira orqali qayta mazmunlanishini ko‘rsatadi.

Jadval 1. Ingliz va o‘zbek tillarida tabiat sohasi metaforalarining freym tarkibiy komponentlari

Tabiat freymi	Asosiy slotlar	Ingliz tilidagi metaforik namuna	O‘zbek tilidagi metaforik namuna	Qiyosiy izoh
SUV	Oqim, to‘lqin, chuqurlik, manba, toshqin	A current of nostalgia carried him back to childhood	Xotira irmoqlari uni eski hovliga yetakladi	Inglizcha model xotira harakatini oqim sifatida, o‘zbekcha model xotirani ko‘p irmoqli ichki yo‘l sifatida beradi
OLOV	Yonish, alanga, cho‘g‘, issiqlik, so‘nish	Jealousy smouldered behind his polite smile	Orzu ko‘ksida cho‘g‘ bo‘lib saqlandi	Ikkala tilda ichki holat harorat bilan anglanadi, o‘zbekcha birlikda yashirin bardosh kuchli
TOG‘	Balandlik, og‘irlik, to‘siq, mustahkamlik	A mountain of obligations stood before him	Mas’uliyat tog‘i yelkasiga tushdi	Inglizcha birlik vazifalar hajmini, o‘zbekcha birlik burch og‘irligini kuchaytiradi
DARAXT	Ildiz, shox, meva, soya, o‘sish	The reform sent roots into local schools	Ezgu niyat ildiz yozdi	Inglizcha misolda institut, o‘zbekcha misolda ma’naviy niyat

Tabiat freymi	Asosiy slotlar	Ingliz tilidagi metaforik namuna	O‘zbek tilidagi metaforik namuna	Qiyosiy izoh
				markazlashadi
SHAMOL	Tarqalish, yo‘nalish, beqarorlik, tezlik	A wind of distrust moved through the office	Xabar yeli mahallani kezdi	Shamol ikki tilda ham ko‘rinmas tarqalish kuchini bildiradi

Tahlil va natijalar. Tog‘ freymi ikki tilda og‘irlik, balandlik, ulug‘lik, to‘siq va mustahkamlik ma’nolarini jamlaydi. Ingliz tilidagi A mountain of obligations stood before him (Uning oldida majburiyatlar tog‘i turardi, tog‘ freymi), Her patience rose above the noise like a cliff (Uning sabri shovqin ustida qoyadek yuksaldi, tog‘ freymi), The scandal placed a ridge between the two parties (Mojaro ikki tomon orasiga tizma tog‘ qo‘ydi, tog‘ freymi) kabi birliklarda tog‘ hajm, barqarorlik va ajratish sahnasini yaratadi. O‘zbek tilidagi Mas’uliyat tog‘i yelkasiga tushdi (A mountain of responsibility fell on his shoulders, tog‘ freymi), Ota sabri tog‘dek turdi (The father’s patience stood like a mountain, tog‘ freymi), Gina ularning orasida qoya bo‘lib qoldi (Resentment remained like a cliff between them, tog‘ freymi) birliklari ham og‘irlik va barqaror to‘siq mazmunini beradi. Biroq o‘zbekcha misollarda tog‘ ko‘pincha sabr, ota, el, mas’uliyat, burch kabi qadriyatlar bilan yaqinlashadi. Ingliz tilida tog‘ modeli vazifa hajmi, siyosiy masofa, institutsional to‘siq kabi rasmiyroq diskurslarda ham keng ishlaydi. Shu jihatdan tog‘ freymi ikki tilda ham tanaviy og‘irlik va ko‘rish tajribasiga tayanadi, ammo o‘zbekcha semantik maydonda u ko‘proq axloqiy chidam va ijtimoiy burch bilan boyiydi.

Daraxt freymi ildiz, shox, tana, barg, meva, soya, qurish va o‘sish komponentlari orqali an’ana, bilim, jamiyat, oilaviy nasl, g‘oya va tarbiya tushunchalarini modellashtiradi. Ingliz tilidagi The reform sent roots into local schools (Islohot mahalliy maktablarga ildiz yubordi, daraxt freymi), A new branch of research grew from that question (O‘sha savoldan tadqiqotning yangi shoxi o‘sdi, daraxt freymi), The old prejudice finally withered (Eski xurofot nihoyat quridi, daraxt freymi) birliklari o‘sish va so‘lish slotlarini ijtimoiy hamda intellektual jarayonlarga ko‘chiradi. O‘zbek tilidagi Ezgu niyat ildiz yozdi (A noble intention spread roots, daraxt freymi), Ilm daraxti meva berdi (The tree of knowledge bore fruit, daraxt freymi), An’ana shoxi avloddan avlodga cho‘zildi (The branch of tradition stretched from generation to generation, daraxt freymi) birliklari esa g‘oya, ilm va an’anani tirik o‘sish jarayoni sifatida beradi. Bu yerda o‘zbek tilidagi agrar tafakkur va hosil, meva, ildiz, avlod obrazlarining kuchli ishlashi ko‘zga tashlanadi. Ingliz tilida ham tree, branch, root modellarining kuchli an’anasi bor, biroq u ko‘pincha ilmiy tasnif, genealogiya, institut yoki g‘oya tarqalishi bilan bog‘lanadi. O‘zbek tilida mazkur freym ma’naviy parvarish, avlodiy davomiylik va tarbiya ohangini kuchaytiradi.

Shamol freymi har ikki tilda ko‘rinmas kuch, tez tarqalish, yo‘nalish, o‘zgarish va beqarorlik ma’nolarini jamlaydi. Ingliz tilida A wind of distrust moved through the office (Ishxonada ishonchsizlik shamoli kezdi, shamol freymi), New fashions blew across the campus (Yangi urflar kampus bo‘ylab esdi, shamol freymi), A cold draft of fear entered the conversation (Suhbatga qo‘rquvning sovuq yeli kirdi, shamol freymi) kabi birliklar ijtimoiy kayfiyatning sezilmas, ammo ta’sirchan tarqalishini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida Xabar yeli mahallani kezdi (The wind of news moved through the neighborhood, shamol freymi), Ko‘ngliga xavotir yeli tegdi (A wind of anxiety touched his heart, shamol freymi), Davr shamoli eski qarashlarni silkitdi (The wind of the age shook old views, shamol freymi) kabi birliklar shamolni ichki sezgi, xabar va tarixiy o‘zgarishning vositasi sifatida ishlatadi. Shamol ko‘zga ko‘rinmaydi, lekin uning ta’siri seziladi. Shu fizik xususiyat abstrakt sohalarda ham aynan shunday ishlaydi: shubha, xavotir, xabar, moda, tarixiy siljish va ijtimoiy kayfiyat bevosita ushlanmaydi, ammo

ular muhitni o‘zgartiradi. Tabiat metaforalari bo‘yicha umumiy kichik xulosa shundan iboratki, ingliz va o‘zbek tillarida tabiat manba sohalari umumiy tanaviy tajriba bilan asoslanadi, biroq o‘zbek tilida suv, daraxt, tog‘, shamol va olov ko‘proq ko‘ngil, sabr, tarbiya, avlod, baraka va ichki holat bilan birlashadi, ingliz tilida esa ijtimoiy jarayon, institutsional o‘zgarish, muhokama va individual psixologik reaksiya ko‘proq markazga chiqadi.

Tabiat freymlarida quyosh, tun va tuproq kabi birliklar ham alohida tahlil imkoniyatiga ega. Ingliz tilidagi The proposal finally saw daylight (Taklif nihoyat kun yuzini ko‘rdi, quyosh yorug‘lik freymi), A dark silence fell over the committee (Qo‘mita ustiga qorong‘i sukut tushdi, tun freymi), The new idea grew from the soil of local experience (Yangi g‘oya mahalliy tajriba tuprog‘idan o‘sdi, tuproq freymi) kabi ifodalar ko‘rish, qorong‘ilik va unish slotlarini faollashtiradi. O‘zbek tilida Adolat quyoshi ko‘ngillarga nur berdi (The sun of justice gave light to hearts, quyosh freymi), Shubha tuni fikrini qopladi (The night of doubt covered his thought, tun freymi), Orzu ona tuproqdan quvvat oldi (The dream took strength from native soil, tuproq freymi) kabi birliklarda tabiat unsurlari axloqiy, kognitiv va identifikatsion ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Bu misollarda yorug‘lik bilim va adolat, tun noaniqlik va ruhiy bosim, tuproq esa kelib chiqish, barqarorlik va milliy mansublik bilan bog‘lanadi.

Xulosa. Mazkur qo‘shimcha freymlar suv, olov, tog‘, daraxt va shamol modellarini to‘ldiradi. Ayniqsa o‘zbek tilida tuproq obrazi oddiy geofizik modda sifatida emas, balki vatan, ildiz, ota-bobolar xotirasi va ma’naviy qarzdorlik bilan bog‘liq ramziy markaz sifatida ishlaydi. Ingliz tilida soil, ground, daylight, darkness kabi birliklar ham kuchli metaforik salohiyatga ega, ammo ularning zamonaviy akademik va publitsistik nutqdagi qo‘llanishi ko‘pincha evidence, public visibility, uncertainty, local context kabi sohalar bilan yaqinlashadi. Shu jihatdan tabiat freymlari ikki tilda umumiy sxematik asoslarga ega bo‘lsa-da, ularning madaniy terminali bir xil shakllanmaydi. Freym tahlilining afzalligi aynan shu farqni ko‘rsatishidadir: manba sohasi umumiy ko‘rinsa ham, slotlarni to‘ldiruvchi fillerlar milliy semantikani yuzaga chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Fillmore C.J. Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm / Ed. by The Linguistic Society of Korea. – Seoul: Hanshin Publishing Co., 1982. – P. 111–137.
2. Fillmore C.J. Frames and the Semantics of Understanding // Quaderni di Semantica. – 1985. – Vol. 6, No. 2. – P. 222–254.
3. Fillmore C.J., Johnson C.R., Petruck M.R.L. Background to FrameNet // International Journal of Lexicography. – 2003. – Vol. 16, No. 3. – P. 235–250.
4. Gale W.A., Church K.W. A Program for Aligning Sentences in Bilingual Corpora // Computational Linguistics. – 1993. – Vol. 19, No. 1. – P. 75–102.
5. Geeraerts D. Theories of Lexical Semantics. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 341 p.
6. Goatly A. The Language of Metaphors. – London; New York: Routledge, 1997. – 360 p.
7. Grady J.E. A Typology of Motivation for Conceptual Metaphor: Correlation vs. Resemblance // Metaphor in Cognitive Linguistics / Ed. by R.W. Gibbs, G.J. Steen. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1999. – P. 79–100.
8. Grady J.E. Primary Metaphors as Inputs to Conceptual Integration // Journal of Pragmatics. – 2005. – Vol. 37, No. 10. – P. 1595–1614.
9. Gumperz J.J., Levinson S.C. (eds.). Rethinking Linguistic Relativity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996. – 488 p.
10. 73. Hanks P. Lexical Analysis: Norms and Exploitations. – Cambridge, MA: MIT Press, 2013. – 462 p.
11. Harris Z.S. Distributional Structure // Word. – 1954. – Vol. 10, No. 2–3. – P. 146–162.